

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIV UNIVERSITETI
RESPUBLIKA MA‘NAVIYAT VA MA‘RIFAT MARKAZI HUZURIDAGI
IJTIMOIV-MANAVIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI TALABA VA
O‘QUVCHILARNING IJTIMOIV FAOLLIGINI OSHIRISH MARKAZI
O‘ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA
QILISH AKADEMIYASI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
TOSHKENT AMALIY FANLAR UNIVERSITETI
“HUQUQ LECC” NODAVLAT TA‘LIM MUASSASASI**

“TA‘LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR: OLIMLAR VA YOSHLAR NIGOHIDA”

**mavzusidagi III Respublika ilmiy-amaliy
konferensiyasi to‘plami**

2024-yil 5-iyun

“Ta'lim tizimidagi islohotlar: olimlar va yoshlar nigohida” mavzusidagi III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi to'plami // Toshkent, 2024-yil 5-iyun. – 398 b.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-avgustdagi “Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4433 sonli Qarori hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 20-martdagi “2024-yil qo'shimcha o'tkaziladigan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar to'g'risida”gi 76-son buyrug'ida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash hamda 2024-yil “Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili”ga bag'ishlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti “Huquqiy fanlar” kafedrası, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi, O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, Termiz davlat universiteti, Toshkent Amaliy fanlar universiteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrası, “HUQUQ LECC” nodavlat ta'lim muassasasi hamkorligida **“Ta'lim tizimidagi islohotlar: olimlar va yoshlar nigohida”** mavzusidagi III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi o'tkazildi.

Mazkur konferensiya to'plamida yuzga yaqin maqolalar jamlangan.

Tahrir hay'ati:

Utamuradov Akbar (falsafa fanlari nomzodi, professor); **Tuychiyev Berdikul** (falsafa fanlari doktori, professor); **Agzamxodajyeva Saida** (falsafa fanlari doktori, professor); **Umaraliyev Vali** (yuridik fanlar nomzodi, dotsent); **Xudaynazarov Samad** (falsafa fanlari nomzodi, dotsent); **Atavullayev Mirkomil** (falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent); **Yusubov Jamshid** (siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent); **Berdikulova Surayyo** (falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent v.b.); **Turgunov Azim** (falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent), **Yusubov Jaloliddin** (falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent), **Saidov Shoxrux** (yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)), **Ismoilov Bekjon** (yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD))

Texnik muxarrirlar:

Shaporov O'lmas (O'zbekiston Milliy universiteti magistranti),
Baxtiyorov Javohir, Esonaliyeva Gulnoza, Mustafoyeva Feruza,
Bozorova Mohlaroyim, Qadamboyeva Ozoda (O'zbekiston Milliy universiteti talabalari)

Maqolalarning to'g'ri va aniqligiga mualliflar mas'uldir.

© Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent

3. Mirziyoev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2021. - 461 bet; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2022 y, 6-son).www.lex.uz.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. —Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy ma'naviy tadqiqotlar instituti faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidal. www.lex.uz.

5. O'zbekiston Respublikasining qonuni —Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risidal. <https://lex.uz/docs/5230682>.

6. Бекмурадов М, Бегматов А Миллий менталитет ва маънавият. –Т.: Адолат, 2002.

HARBIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK VOSITALAR VA ULARNING SAMARADORLIGI

Qaxxarov Siyovush
NamDU mustaqil tadqiqotchi

Harbiy madaniyat shaxsning intellektual, ma'naviy, jismoniy va psixologik jihatdan shakllanishini qamrab oluvchi murakkab ijtimoiy-pedagogik jarayon bo'lib, ta'lim-tarbiya tizimining barcha bosqichlarida uzviy ketma-ketlikda, bosqichma-bosqich tizimli asosda yondashuvni talab qiluvchi umummadaniy faoliyatning tarkibiy qismi hisoblanadi. Ya'ni, harbiy madaniyat shaxs va jamiyatning mudofaa, xavfsizlik, vatanparvarlik va ijtimoiy hamkorlik sohalaridagi bilim, ko'nikma, qadriyat hamda amaliy faoliyatini o'zida mujassamlashtiruvchi murakkab ijtimoiy-pedagogik hodisadir.

Har bir madaniyat va madaniy kompetensiyalarni ham o'z rivojlanish bosqichlari va sifat darajalari bo'lgani kabi harbiy madaniyatning ham o'ziga hos daraja ko'rsatkichlari mavjuddir.

Harbiy madaniyat shaxsning ijtimoiy-ma'naviy qiyofasi, kasbiy malakasi, intizomi, vatanparvarligi va psixologik tayyorgarligini o'zida mujassamlashtiruvchi kompleks tushunchadir. Uni shakllantirish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshadi: reproduktiv, produktiv va yuqori darajalar. Har bir bosqich o'ziga xos pedagogik mazmunga ega bo'lib, shaxsning bilim, ko'nikma va qadriyatlarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Harbiy madaniyatning reproduktiv darajasi shaxsning tayyor bilim, ko'nikma va qadriyatlarni qabul qilib, ulardan belgilangan tartibda foydalanish, ya'ni mavjud tajribani o'zlashtirib, uni qayta ishlab chiqmasdan amaliyotda qo'llash darajasidir.

Bunday bosqichda shaxs mustaqil ijodiy yondashuvni ko'rsatmaydi, biroq harbiy intizom, nazariy bilim va amaliy mashg'ulotlarni aniq va to'g'ri bajarish qobiliyatiga ega bo'ladi. Ushbu darajaga erishishda qo'llaniladigan pedagogik vositalar, avvalo, tayyor bilimlarni to'liq o'zlashtirish, tartib va intizomni shakllantirish, amaliy mashqlarni takrorlashga qaratilgan bo'ladi. Bu bosqich harbiy madaniyatning poydevori hisoblanadi: shaxs avval tayyor bilimlarni qabul qiladi, so'ngra ularni yuqori – produktiv va ijodiy darajada qo'llash imkoniga ega bo'ladi.

Ta'lim-tarbiya ob'ektida harbiy madaniyatni produktiv darajasiga erishish imkoniyatlari ham o'ziga xos pedagogik talablarni talab qiladi. Bu bosqichda shaxs faqat nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, balki amaliy faoliyatda samarali qo'llash, o'z hayotida va xizmat jarayonida qoida, tartib, intizom va ma'naviy-axloqiy tamoyillarga amal qilishi tushuniladi. Bunday darajaga erishishda pedagogik vositalardan avvalo nazariy bilimlarni shakllantirishga oid puxta nazariy tayyorgarlik ma'ruza va seminar mashg'ulotlari, adabiyot va manbalar bilan ishlash hamda interfaol metodlarni o'rinli qo'llash hal qiluvchi omil bo'lib, ular orqali yoshlar va harbiy izmatchilarning dunyoqarashi, ma'naviy qiyofasi va kasbiy malakasi shakllantiriladi. Bu bosqichda vatan tarixi, harbiy strategiya, mudofaa siyosati, xalqaro munosabatlar, zamonaviy xavfsizlik tahdidlari haqida bilim berilishi bilan birga harbiy tarixiy asarlar, huquqiy hujjatlar, xalqaro konvensiyalar, milliy qonunlar va Ustavlar puxta o'rganimladi. Izlanish va o'rganishlar asosida shaxsning dunyoqarashi kengayib fikrlash diapazoni yuksalib boradi. Mazkur vositalar yordamida nazariy bilimlar amaliy tajriba bilan uyg'unlashtirilganda, harbiy madaniyatda ongli yondashuv yuzaga keladi.

Harbiy madaniyatni samarali shakllantirishda saf mashqlari va jismoniy tayyorgarlik muhim ahamiyat kasb etib, bunda ta'lim oluvchilarda intizom, buyruqqa bo'ysunish, jamoada harakat qilish ko'nikmasini shakllantiradi. Shuningdek, harbiy-texnik mashg'ulotlar orqali zamonaviy qurol-yarog' va texnikadan foydalanish malakalarini mustahkamlab boriladi. Mazkur jarayonda harbiy o'yinlar va simulyatsiyalar samarali ta'lim vositalari tarkibiga kiradi. Chunki ular orqali ta'lim jarayonida urush holatini modellashtirish orqali tezkor qaror qabul qilish, muammoli vaziyatlarda yo'l topish, stressni yengib o'tish qobiliyati shakllanib rivojlanib boradi. Bu kabi pedagogik vositalar nazariy bilimlarni amaliy faoliyatga tadbiq qilish imkonini beradi va harbiy sohada real sharoitlarga tayyorlash imkoniyatlarini amalda yaratib beradi. Shuningdek, produktiv harbiy madaniyat nafaqat jismoniy yoki texnik bilimlarda, balki axloqiy fazilatlarda ham ifodalanadi. Bu eng muhim bosqichlardan biri bo'lib, vatanparvarlik tarbiyasiga real imkoniyat yaratib beradi.

Harbiy sohaga oid atributlar, an'anaviy marosimlar va ramzlar shaxsda ma'naviy-ruhiy mustahkamlikni kuchaytiradi. Harbiy madaniyatning ma'naviy-axloqiy komponentlari orqali soha ob'ekti va sub'ektlarida halollik, mas'uliyat, insonparvarlik, jamoaga sodiqlik kabi fazilatlar shakllantiriladi. Umuman olganda ma'naviy-axloqiy tarbiya vositalari harbiy xizmatchining nafaqat kasbiy, balki shaxsiy hayotini ham muvozzantga keltiradi. Shuningdek, harbiy madaniyatni samarali rivojlantirish uchun shaxsning ruhiy barqarorligi, jamoaga moslashuvi va ijtimoiy faolligi ham muhim masala bo'lib, stressga chidamlilik, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish, ijtimoiy hamjihatlilik va hamkorlik, o'zaro hurmat va yetakchilik fazilatlarini rivojlantirish imkonini beradi. Shu vositalar orqali harbiy jamoa ichida sog'lom muhit yaratiladi va shaxsning psixologik jihatdan barqaror faoliyati ta'minlanadi.

Harbiy madaniyatni produktiv darajasiga erishish ham o'ta murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, nazariy, amaliy, ma'naviy-axloqiy, psixologik, axborot-kommunikatsion va boshqaruv vositalarining uyg'unligi orqali amalga oshadi. Harbiy madaniyatni produktiv darajaga ko'tarishda faqat vositalarning mavjudligi emas, balki ularni to'g'ri boshqarish ham muhim. Bunda motivatsion mexanizmlar, individual yondashuv va albatta monitoring va baholash tizimi muhim hisoblanadi. Bu yondashuvlar harbiy madaniyatni shakllantirish jarayonida pedagogik vositalarning samarali uyg'unlashuvini ta'minlaydi.

Harbiy madaniyatning yuqori darajasida endi faqat tayyor bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi emas, balki ularni ijodiy tarzda qo'llashi, turli murakkab vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila olishi, vatanparvarlik va fidoyilik ruhida o'z faoliyatini ongli tashkil etishi tushuniladi. Bu darajaga erishish reproduktiv va produktiv bosqichlardan keyin shakllanadi va harbiy madaniyatning eng mukammal bosqichi sifatida namoyon bo'ladi. Yuqori darajadagi harbiy madaniyat shaxsning chuqur nazariy bilimlari bilan belgilanadi. U nafaqat nizom va ustavlarni biladi, balki harbiy strategiya, geosiyosiy jarayonlar, xavfsizlik konsepsiyalari mohiyatini mustaqil tahlil qila oladi. Masalan, oddiy buyruqni bajarish bilan kifoyalanmay, buyruqning mazmuni va uning ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini ham anglaydi. Shu tariqa shaxs o'zining intellektual salohiyati orqali nafaqat harbiy tizim, balki jamiyat xavfsizligi uchun ham mas'uliyatli qarorlar qabul qila oladi.

Harbiy madaniyatning yuqori darajasida shaxs turli sharoitlarda tezkor harakat qilish, zamonaviy qurol-yarog' va texnikani samarali boshqarish, murakkab jangovar vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo'ladi. Bu bosqichda u faqat tayyor qoidalarga amal qilibgina qolmay, balki ijodkorlik bilan yangi yechimlar

topa oladi. Harbiy simulyatsiyalar, favqulodda vaziyatlarni boshqarish, strategik o'yinlar orqali shaxs o'z kasbiy mahoratini takomillashtiradi.

Yuqori darajadagi harbiy madaniyatning eng muhim belgilaridan biri – bu shaxsning ma'naviy-axloqiy yetukligidir. U vatanparvarlik, sadoqat, halollik, insonparvarlik va mas'uliyat kabi yuksak qadriyatlarga tayanadi. Shaxsning faoliyatida axloqiy tanlovlar hal qiluvchi o'rin tutadi: u nafaqat buyruqqa bo'ysunadi, balki adolat va insoniylik tamoyillarini ham hisobga oladi. Shu jihatdan yuqori darajadagi harbiy madaniyat ma'naviy va kasbiy barkamollikni birlashtiradi. Harbiy madaniyatning yuqori bosqichiga erishgan shaxs stressli vaziyatlarda ham o'zini nazorat qila oladi, psixologik barqarorlikni saqlaydi va boshqalarni ham ruhlantira oladi. U nafaqat ijrochi, balki yetakchi sifatida namoyon bo'ladi. Eng muhimi harbiy madaniyatning mazkur darajasi faqat harbiy xizmat doirasida emas, balki butun jamiyat hayotida ham muhim rol o'ynaydi. Bunday shaxslar tinchlikni saqlash, yosh avlodni tarbiyalash, fuqarolik jamiyatini mustahkamlashda faol ishtirok etadilar. Demak, yuqori darajaga yetgan harbiy madaniyat keng ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Bu daraja harbiy madaniyatning eng mukammal ifodasi bo'lib, yurt tinchligi, vatan ravnaqi, farovon va osuda hayot, eng muhimi milliy xavfsizlik va ma'naviy barqarorlikning kafolatlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: “O'zbekiston” nashriyoti, 2023.
2. Лобейко Ю. А., Борозенес Н. М. Психолого-педагогический словарь-справочник. –М.: Ставропол: Изд-во “СтГАУ АГРУС”, 2004.
3. Резер Т.М. Патриотическое воспитание молодежи в условиях современных вызовов. // Педагогисал Жоурнал оф Башкортостан. 2023; (3): 45-56.
4. Kudratova M.U. Psixologicheskie faktory professionalnoy kvalifikatsii voennoslujajux. // Vestnik integrativnoy psixologii // Jurnal dlya psixologov. Выр. №.28. – Вухара- Yaroslavl: МАРН, 2023.
5. Стуканов В. Г. Военно-патриотическое воспитание учащихся: пособие для пед. работников учреждений образования, реализующих образоват. программы общ. сред. образования. / –Минск.: “Натсиональный институт образования”, 2023.
6. White R.W. Motivation reconsidered: the concept of competence // Psychological Review. 1959. № 66. P. 297–333.
7. Turdiev N.Sh., Asadov Yu.M., Akbarova S.N., Temirov D.Sh. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga

Хо‘jaxonov I.A. Oliy ta’lim tizimida innovatsiya metodlardan foydalanish huquqiy dunyoqarashni rivojlantirish omili.....	340
Choriyev I.A. Pedagog magistrning ijodkorligi: kvalimetrik konteks.....	344
Чориева Х.Х. Васийлик ва хомийлик институтининг ҳуқуқий асослари....	350
Чориева Х., Аминова Г. Феминизм: тарих ва келажак.....	352
Шадиметова Г.М. Миллий байрамларда миллий ғурур тушунчасининг ифодаланиши.....	357
Sharopov O’. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning yoshlar ma’naviy dunyoqarashini rivojlantirishdagi ahamiyati.....	360
Sherekbayeva D. Ekstremizm va xalqaro terrorizmning ko‘rinishlari.....	363
Shodiyev J.J. Inson qadri va uning manfaatlarini ta’minlashda ijtimoiy rivojlanish falsafasining roli.....	369
Shokirova D.B. Normativ-huquqiy hujjat loyihasining huquqiy ekspertizasini amalga oshirish.....	371
Shukurullayeva I.M., Orziqulov B. Yangi O‘zbekistonda intellektual mulk va mualliflik huquqi obyektlarini muhofaza qilishning huquqiy mexanizmlari.....	375
Esonaliyeva G.D. Milliy qonunchilik tizimida intellectual mulk huquqi va uning kafolatlari.....	378
Yuldashev S.U. Jamiyat transformasiyalashuvi va ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning loyihalashtirish zarurati.....	383
Юлдашев Ф.А. Таълим даргоҳларида тарбия фанини ўқитиш орқали ёшлар камолотини юксалтиришнинг муҳим жиҳатлари.....	386
Yusubov J.K., Suleymanov S.S. Ma’naviy tarbiyani “O‘zbekiston - 2030” strategiyasida namoyon bo‘lish jihatlari.....	389
Qaxharov S. Harbiy madaniyatni shakllantirishda pedagogik vositalar va ularning samaradorligi.....	395
Юсупов Т. Метрологияни ўрганишда ҳуқуқий асос ва илмий тадқиқотлардан фойдаланиш методикаси.....	399